

---

## Respublika ishchi guruhi tomonidan Toshloq tumanida ijtimoiy-ma'naviy vaziyat va aholining yashash sharoitlarini o'rganish natijalari bo'yicha

### AXBOROT

Berilgan topshiriqqa asosan joriy yilning **19 - 28 sentyabr** kunlari **9 ta ishchi guruhlar** tomonidan Farg'ona viloyati Toshloq tumanida ijtimoiy-ma'naviy vaziyat va aholining yashash sharoitlari o'rganildi.

Ishchi guruhlarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchilari, vazirlik va idoralar, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari, nodavlat notijorat tashkilot rahbarlari boshchilik qilgan holda Toshloq tumanining **51 ta** mahalla fuqarolar yig'inlarida faoliyat olib bordilar.

Toshloq tumanida **33 ming 569 ta** xonadonlarda **193 ming 150 nafar** fuqaro istiqomat qilib, ishchi guruh a'zolari tomonidan **31 865 ta** (95%) xonadonlarga kirib chiqildi. O'rganish jarayonida turli yo'nalishlarda jami **5 689 ta** muammolar aniqlandi. Jumladan:

- oilalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhit bo'yicha 13 ta;
- tabiiy gaz va gaz ballon bilan ta'minlash bo'yicha 1 771 ta;
- elektr energiyasi ta'minoti bo'yicha 171 ta;
- ichimlik suvi ta'minoti bo'yicha 202 ta;
- yo'llarni ta'mirlash bilan bog'liq 134 ta;
- ko'mir ta'minoti bilan bog'liq 1 383 ta;
- maktabgacha ta'lim tizimi bilan bog'liq 169 ta;
- xalq ta'limi tizimi bilan bog'liq 9 ta;
- sog'liqni saqlash tizimi bilan bog'liq 229 ta;
- ishga joylashtirish bo'yicha 232 ta;
- bank krediti bilan bog'liq 244 ta;
- tadbirkorlik bo'yicha 19 ta;
- uy-joy masalasi bo'yicha 327 ta;
- moddiy-yordam bo'yicha 354 ta;
- boshqa masalalar bilan bog'liq 430 ta muammolar aniqlangan.

Mazkur muammolarni **4 931 tasi** yoki umumiy murojaatlarning **86,7** foizi **bartaraf etildi**.

-

#### **1. Aholini gaz, elektr energiya va ko'mir bilan ta'minlash bo'yicha:**

**Tabiiy va suyultirilgan gaz bo'yicha 1771 ta** muammoli masalalar ko'tarilgan bo'lib, **1733 tasi** (97,9%) hal etilgan. Ushbu sohada murojaatlarning asosiy qismi maishiy gaz ballon hamda suyultirilgan gaz bilan ta'minlash bo'yicha bo'lmoqda.

**19-26 sentyabr kunlari** tuman aholisiga **3317 dona (1,2 mlrd. so'mlik)** maishiy gaz ballonlari tarqatildi, shuningdek, **7 355 dona** gaz ballonlari **147,1 tonna** suyultirilgan gaz bilan to'ldirib berildi.

---

Toshloq tumani aholisiga 2018-2019 yil kuz-qish davri uchun **7 ming 486 tonna** ko'mir va ko'mir briket mahsulotlari etkazib berish joriy yil oktyabr oyidan boshlab berilishi rejalashtirilgan bo'lib, o'rganish davrida (19-25 sentyabr kunlari) **374 tonna** (5%) ko'mir etkazib berildi.

Tumandagi ijtimoiy soha ob'ektlari uchun **2 651 tonna ko'mir berish** rejalashtirilgan bo'lib, bugungi kunda jami **2 275 tonna** (85,8%), jumladan, Maktabgacha ta'lim bo'limi **590 tonna** (83%), umumiy o'rta ta'lim maktablari **1380 tonna** (87%), Sog'liqni saqlash muassasalariga **305 tonna** (87 %) ko'mir bilan ta'minlandi.

**Elektr ta'minotini yaxshilash bo'yicha** jami **171 ta** muammoli masalalar ko'tarilgan bo'lib, **97 tasi** (56,7%) hal etilgan.

Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida tumanga **80** nafardan ortiq xodimlar hamda maxsus avtomashinalar jalb etilib, **4 ta** har xil quvvatga ega transformatorlar, **252 ta** temir-beton tayanchlar, **72 dona** yog'och tayanchlar, **432 kg** har xil turdagi ochiq simlar, **37 dona** metall konstruksiyalari, **24 dona** kommutatsion apparatlar, **264 metr** kommutatsiya simlari, **152** dona izolyatorlar (jami **728 mln. so'mlik**) olib kelinib qurilish-montaj ishlar olib borilmoqda.

19-26 sentyabr kunlari **Guzarboshi, Sufilar, Toshloq, Qipchoqariq MFY**lari hududiga **4 ta** har xil quvvatga ega qo'shimcha transformatorlar o'rnatildi.

**19 ta** mahalla fuqarolar yig'inidagi **32 ta** ko'chalarida jami **324 ta** temir-beton hamda yog'och tayanchlari o'rnatilib, hozirda ta'mirlash-montaj ishlari bajarilmoqda.

**Yangi yo'l, Xotinqumi, Arabmazor, Varzak hamda Toshloq MFY** hududlarida joylashgan **15 ta** transformator punktlari, **9,6 km** elektr tarmoqlari hamda tayanchlardagi nosozliklar bartaraf etildi.

Ishchi guruhning o'rganishi davomida kelib tushgan murojaat va takliflar asosan elektr tarmoqlarini ta'mirlash, nostandart yog'och ustunlarni yangilash, qo'shimcha transformator punktlari o'rnatish ishlarini tashkil etdi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida tumandagi jami **51 ta** mahallalardagi **30 mingdan ortiq** aholi xonadonlarining, **6 ta** ijtimoiy soha muassasalari va **98 ta** tadbirkorlik sub'ektlarining elektr ta'minoti yanada yaxshilandi.

## **2. Toza ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha:**

Tumanda jami **147** dona suv quduqlari va **275 km** ichimlik suvi tarmoqlari mavjud bo'lib, suvlashtirish darajasi **56%** tashkil etadi.

O'tkazilgan o'rganishlarda **202 ta** murojaat tushgan. Ushbu murojaatlarni hal etish maqsadida tumanda bugungi kun holatiga **11 ta** ichimlik suv minorasi ta'mirlandi, **13,2 km** transheya qazildi, **19,6 km** ichimlik suvi tarmog'i tortildi, **17 ta** suv nasosi o'rnatildi, **12 ta** ichimlik tarmog'idagi nosozliklar bartaraf etildi.

Yuqorida amalga oshirilgan ishlar natijasida qo'shimcha **2350 ta** xonadon yoki **9400 nafar** aholi ichimlik suvi bilan ta'minlanib, aholini ichimlik suvi bilan ta'minlanish darajasi **78 foizga** ko'tariladi.

## **3. Ichki yo'llarni holatini yaxshilash bo'yicha:**

Toshloq tumanida **860,6 km** ichki yo'llar mavjud bo'lib, ularni **317,4 km** (36,8 %) qismi ta'mirtalab holatda.

Aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo'yicha jami **27** tadan ortiq yo'l qurilish texnikalari jalb etilib **36 ta** MFY hududidagi **50 ta** ko'chalarda **19,075 km** ichki yo'llar shag'allashtirildi va Naymanbo'ston MFY 29-maktabga kirish yo'li **600 metr** va Mehnatobod qishlog'i Yangi yo'l ko'chasiga **222 metr** asfalt yotqizildi. Ichki yo'llarni shag'allash ishlari davom etmoqda.

Umum foydalanuvdagi 4R 140 "Marg'ilon - Quva - Marhamat", 4R-127a Marg'ilon shimoliy aylanma avtomobil yuli, 4K 839 "Toshloq - Qoratepa", 4K 840 "Yakkatut Bo'ston Qoratepa", 4K 842 "Zarkent - Turvat", 4N 837 "Zarkent - Qumariq" va 4N 838 "Baqay - Qo'chqorchi - Arabmazor" avtomobil yo'llarida paydo bo'lgan **210 m2** chuqur-chanoqlar bartaraf etildi. 4R-140 "Marg'ilon - Quva - Marxamat", 4R-127a Marg'ilon shimoliy aylanma avtomobil yuli, 4N 838 "Baqay - Qo'chqorchi - Arabmazor" avtomobil yullarida jami **7-joyda** piyodalar o'tish joylari belgilandi.

Murojaatda ko'rsatilgan **34 ta** ichki yo'llarni (**22,8 km**) asfalt bilan ta'mirlash uchun **4 mlrd. 560 mln.**

---

so'm mablag' (9641 tonna asfaltobeton mahsuloti, 675 tonna bitum) talab etilmoqda.

#### **4. O'tkazilgan hasharlar bo'yicha:**

Tumanning **51 ta** mahalla fuqarolar yig'inlarida joriy yilning 22-23 sentyabr kunlari umumxalq hasharlari tashkil etildi.

Hasharlarda jami **50 745** nafar aholi, jumladan, **35 521** nafar yoshlar ishtirok etdi hamda **102 ta** yuk mashinalari va texnika vositalari jalb etildi.

O'tkazilgan hasharlarda:

- **146 gektar** er maydonlari obodonlashtirilib, **61,7 km** ariq va lotoklar tozalandi.
- aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida hashar yo'li bilan **13,4 km** masofada qazish ishlari amalga oshirildi;
- **51 ta** ehtiyojmand oilalar, yakka yolg'iz qariyalarning uy-joylari ta'mirlandi;
- **48 ta** ta'lim muassasalari, **25 ta** maktabgacha ta'lim muassasalari hashar yo'li bilan obodonlashtirildi;
- **7 ta** ziyoratgoh va **63 ta** qabristonlar tozalanib, obodonlashtirildi;
- **255 tonna** maishiy va qurilish chiqindilar chiqarib tashlandi.

#### **5. Melioratsiya va tomorqalarni sug'orish tizimini yaxshilash bo'yicha:**

Tumanda suv xo'jaligi yo'nalishida aniqlangan muammolarni hal etish maqsadida jami **11 dona mexanizmlar**, jumladan, **2** dona avtotreyler hamda **9 dona** ekskavatorlar jalb etilgan bo'lib, jami **11,2 km** uzunlikda kollektor-drenaj va sug'orish tarmoqlarida ta'mirlash-tiklash tadbirlari bajarildi.

Jumladan, **melioratsiya tadbirlar** bo'yicha **Bo'ston, Besarang, Obod diyor, Mexnatobod, Xamrak, Soybo'yi, Varzak MFYlar** hududidagi ichki zovur tarmoqlarida **6,55 km** tozalash ishlar bajarilib, aholi tomorqalarining **76 ga** maydondagi er osti sizot suvlari sathi pasaytirildi. Hozirda tozalash ishlari davom etmoqda

**Irrigatsiya tadbirlari** bo'yicha **Toshloq, Turvat, Shodlik MFYlari** hududidagi **1 km** ichki ariqlarda tozalash ishlari bajarildi. **Toshloq, Guzarboshi, Xonariq MFY** lardagi **34 ta** aholi tomorqa erlarini sug'orish uchun ichki ariqlardan suv etkazib berildi.

Shuningdek, "**Obod qishloq**" dasturi doirasidagi tadbirlarga **2** dona mexanizmlar ajratilib, **Zarkent va Yangiyo'l MFYlar** hududidagi **4 km** uzunlikda zovur tarmoqlarini ta'mirlash ishlari rejalashtirilib, amalda **3,7 km (92%)** bajarildi.

#### **6. Aholi sog'lig'ini saqlash yo'nalishida jami 229 ta muammo aniqlandi.**

Tumanda joylashgan **10 ta** birlamchi tibbiy-sanitariya yordam muassasalarida jami **19,25** stavka umumiy amaliyot shifokori (UASH) va **11,75** stavka tor doiradagi mutaxassislar etishmasligi, tumanda birlamchi tizimni yanada sifatini oshirish uchun tor doiradagi mutaxassislarga bo'lgan extiyoj sababli birlamchi malakali tibbiy yordam ko'rsatilishiga salbiy ta'sir etmoqda.

19-26 sentyabr kunlari Tuman aholisining **11368 nafari** to'liq tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Shu jumladan, **390 nafar** nogironligi bor shaxslar, **697 nafar** pensionerlar va **529 nafar** boshqa toifadagi fuqarolarning **o'z uylariga** borgan holda tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Jami tibbiy ko'rikdan o'tkazilganlarning **3444 nafari (30.3%)** kasalliklar aniqlandi. Kasallik aniqlanganlarning **3245 nafari** ambulator davolanishga, **172 nafari** tuman markaziy shifoxonasida va **27 nafari** viloyat ixtisoslashgan shifoxonalarda davolanishga yo'llanma berildi.

~~**55 nafar** fuqaroga nogironlik aravachasi, **3 nafar** fuqaroga qo'ltiq tayoq, **7 nafar** fuqaroga eshituv moslamasi berildi.~~

Nogironlik belgilash masalasida bo'yicha fuqarolar xujjatlari o'rganib chiqilib, **2 nafari** nogironlik

---

guruxi belgilandi.

Viloyat mutaxassisleri ishtirokida tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli shoshilinch tez tibbiy yordam bo'limi va jarrohlik bo'limida mahorat darsligi o'tkazilib, unda **2 nafar** bemorning yangilik operatsiyasi o'tkazildi hamda **2 nafar** kam ta'minlangan bemorlar operatsiya qilindi.

### **7. Maktabgacha ta'lim tizimi bo'yicha:**

Tumandagi jami **14 ming 687 nafar** 3-7 yoshli bolalarning **3 ming 115 nafari (21,2%) 26 ta** maktabgacha ta'lim muassasasiga qamrab olingan. Quvvatga nisbatan qamrov **98,4 %** ni tashkil etadi. Tumandagi **25 ta** mahalla fuqaro yig'inlarida davlat maktabgacha ta'lim muassasasi umuman mavjud emas.

O'rganish jarayonida fuqarolar tomonidan maktabgacha ta'lim bilan bog'liq **169 ta** murojaatlar kelib tushdi.

Ishchi guruhi tomonidan aholi muammolarini o'rganish jarayonida tumandagi **6 ta** (5, 10, 11, 13, 15, 25-sonli) davlat maktabgacha ta'lim muassasalarini kuz-qish mavsumiga tayyorlash maqsadida **14 dona 84 mln. so'mlik** isitish qozonlari o'rnatildi.

**2 ta** (20, 28-sonli) davlat maktabgacha ta'lim muassasalarining atrofi (jami **220 metr**) homiylik tariqasida, devor bilan o'raldi.

6-sonli maktabgacha ta'lim muassasasida **15 mln. so'mlik** mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan 75 metrlik atrof devori yangitdan qurib bitkazildi.

**2 ta** (10, 25-sonli) maktabgacha ta'lim muassasasiga jami **155 mln. so'mlik** mahalliy byudjet mablag'lari hisobidan 5 ta issiqlik qozonini almashtirish va binolarini joriy ta'mirlash ishlari olib borildi.

Tumandagi **65 nafar** bolalar maktabgacha ta'lim muassasalariga (shundan 7 nafari imtiyozli tarzda) joylandi.

**8. Xalq ta'limi tizimini** o'rganish davomida tumandagi **50 ta** umumta'lim maktablaridan **5 tasi** joriy ta'mirga, **4 ta** maktab binolari kapital ta'mirga muhtojligi, **2 tasida** qo'shimcha bino qurish va rekonstruksiya qilish zarurligi, **1 ta** maktabda sport zalga ehtiyoj mavjudligi aniqlandi.

Bugungi kunda mazkur maktablarda, xususan, 24-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf binosida **2 ta** isitish qozoni o'rnatildi va **100 p/m** issiqlik tizimi yangilandi. Amalga oshirilgan ishlar uchun mahalliy byudjet hisobidan **50,0 mln. so'm** mablag' sarflandi.

SHuningdek, 23-umumiy o'rta ta'lim maktabida mahalliy byudjet hisobidan **12,5 mln. so'm** sarflanib, sport zali isitish tizimi joriy ta'mirlandi hamda **1 dona** isitish qozoni yangisiga almashtirildi.

2-umumiy o'rta ta'lim maktabida mahalliy byudjet hisobidan **13,0 mln. so'm** sarflanib, 2 ta eskirgan isitish qozonlari yangisiga almashtirildi.

5-umumiy o'rta ta'lim maktabida mahalliy byudjet hisobidan **31,0 mln. so'm** sarflanib, 2 ta eskirgan isitish qozonlari yangisiga almashtirildi hamda **450 p/m** ichimlik suvi quvuri tortildi.

26-umumiy o'rta ta'lim maktabida mahalliy byudjet hisobidan **21,5 mln. so'm** sarflanib, 3 ta eskirgan isitish qozonlari almashtirildi.

49-umumiy o'rta ta'lim maktabida mahalliy byudjet hisobidan **29,5 mln. so'm** sarflanib, 5 ta eskirgan isitish qozonlari yangisiga almashtirildi.

6-umumiy o'rta ta'lim maktabida mahalliy byudjet hisobidan **8,0 mln. so'm** sarflanib, **550 p/m** ichimlik suvi quvuri tortildi.

~~15-umumiy o'rta ta'lim maktabida mahalliy byudjet hisobidan **30,0 mln. so'm** sarflanib, orqa hovlisini **120 metr** atrof devori o'raldi, isitish tizimi joriy ta'mirlandi..~~ 4 / 8

7-umumiy o'rta ta'lim maktabida mahalliy byudjet hisobidan **38,0 mln. so'm** sarflanib, isitish tarmog'i

---

ta'mirlanib, 2 dona eskirgan isitish qozoni yangisiga almashtirish ishlari amalga oshirildi.

Bundan tashqari tumandagi ta'lim muassasalarining isitish tizmini ta'mirlash, binolarni joriy ta'mirlash uchun 2019 yilga maxalliy byudjetdan **2 mlrd. 693 mln. so'm** ajratishi rejalashtirilgan.

Tumandagi umumta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning **2012 nafari (94,3%)** malakasini oshirgan. **2132 nafar**

Maktablarda tahsil olayotgan **29 ming 53 nafar** o'quvchilarning **(75,9%)** to'garaklarga jalb etilgan. **22 ming 64 nafar**

### **9. Xotin-qizlar va oilalardagi ijtimoiy-manaviy muhitni sog'lomlashtirish masalalari bo'yicha:**

Tumanda 2018 yilning 8 oyi davomida xotin-qizlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar **4 ta** bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10 taga**, oilaviy ajrashishlar **82 ta** bo'lib, **9 taga** kamaygan. Hisobda turgan notinch oilalar **27 tani** tashkil etmoqda.

Tumandagi oilaning **68 tasi** noqonuniy shar'iy nikoh bilan yashab kelayotganligi aniqlanib, 2018 yilning 8 oyi davomida ulardan **47 tasi**ning nikohi rasmiylashtirildi. **142 ta** ajrashish arafasidagi oilalar yarashtirildi.

2018 yilning boshida **39 ta** oila profilaktika hisobida turgan bo'lib, 2018 yil 8 oyi davomida notinch oilalar bilan profilaktika ishlari olib borish natijasida **12 ta** notinch oiladagi notinchlik sabablari bartaraf etilib, profilaktik xisobdan chiqarildi. Ushbu ko'rsatkichlar notinch oilalar bo'yicha ishlarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Yolg'iz onalar soni **41 nafar** bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **21 nafar**ga kamaygan.

2018 yilning 8 oyida Toshloq tumanida xotin-qizlar tomonidan o'z joniga qasd va suiqasd qilish **3 tani** tashkil etadi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan **5 taga** kamaygan.

Respublika ishchi guruhi a'zolari tomonidan joriy yilning 21 sentyabr kuni tumandagi tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagini bildirgan, kredit olmoqchi bo'lgan xotin-qizlar va xunarmand ayollar hamda ustoz-shogird yo'nalishida qayta kasbga o'qitish markazlariga jalb etiladigan xotin-qizlar uchun "**Obod diyor**" kinoteatri "**Biznes-start**" tadbiri tashkil etildi. Tadbirda kasb-xunar kollejlari bitiruvchilari hamda o'z biznesini yo'lga qo'yimoqchi bo'lgan **401 nafar** xotin-qizlar ishtirok etdi.

"**Sadda**" MFY hududida yakka tartibdagi tadbirkor Fayzxo'jaeva Muattarxon tomonidan "Firdavs hilol fayz" MCHJ tikuvchilik sexi tashkil etilib, joriy yilning 22 sentyabr kuni Respublika ishchi guruh tomonidan ochilish marosimi o'tkazildi. Tikuvchilik sehida 30 ta yangi ish o'rini yaratildi. Vaqtincha ishsiz bo'lgan **30 nafar** xotin-qizlarni bandligi ta'minlandi.

Tumandagi **Zarkent MFY** binosida "Mahalla kutubxonasi" tashkil etilib tuman hokimligi tomonidan **300 dona** badiiy adabiyotlar sovg'a qilindi.

2018 yil 23 sentyabr kuni Chek MFYda yakka tartibdagi tadbirkor Masaidova SHaxnozaxon tomonidan "SHaxnoza" nomli tikuvchilik sexi tashkil etilib, **12 ta** yangi ish o'rini yaratildi. Vaqtincha ishsiz bo'lgan 12 nafar xotin-qizlarni bandligi ta'minlandi.

2018 yil 24 sentyabr kuni Do'stlik MFYda "Gulnomozshom" tikuvchilik tashkil etilib, **15 ta** yangi ish o'rini yaratildi. Vaqtincha ishsiz bo'lgan **15 nafar** xotin-qizlarni bandligi ta'minlandi.

Zarkent Agrosanoat kasb-xunar kollejida "**Qizlar sayli**" ma'naviy-ma'rifiy tadbiri o'tkazildi. Tadbirda tumandagi **48 ta** umumta'lim maktablari, **6 ta** kasb-hunar kollejlari tahsil olayotgan iqtidorli va iste'dodli qizlar hamda mahallalardagi uyushmagan, vaqtincha ishsiz bo'lgan **250 nafar**dan ziyod qizlar ishtirok etdilar. Xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi umumta'lim maktabi o'quvchilari va "Barkamol avlod" bolalar markazlarida tahsil olayotgan o'quvchi qizlar tomonidan qo'l mehnatlari bilan yaratilgan ijodiy ishlar ko'rgazmasi tashkil etildi. She'riyat yo'nalishida ijod qilayotgan qizlar o'z ijod namunalari bilan o'qib eshittirdi. Kasb-xunar kollejlari tahsil olayotgan qizlar o'rtasida "**Balli qizlar**" ko'rik tanlovi, "**Qizlarni oilaviy xayotga tayyorlash**" mavzusida davra suhbatlari o'tkazildi. Tadbirlarda faol ishtirok etgan **20 nafar** qizlarga viloyat Xotin-qizlar qo'mitasi va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi viloyat kengashi tomonidan "Faxriy yorliq" va esdalik sovg'alari topshirildi.

---

Respublika ishchi guruhi tomonidan tumandagi Zarkent, Xotinqumi, Yakkatut, Nayman, Arabmozor, Toshloq, Sadda, Naymanbo'ston, Yangi yo'l, Qumariq mahalla fuqarolar yig'inlari qoshida "Mahalla kutubxonasi" tashkil etildi.

O'tkazilgan barcha tadbirlar Farg'ona viloyat teleradiokompaniyasi orqali keng aholi ommasiga namoyish etildi, shuningdek, tuman hokimligining "Toshloq tongi" gazetasida yoritildi.

#### **10. Aholining bandligini ta'minlash bo'yicha:**

Tuman bandlik bo'limining hisobotiga ko'ra, tumanda mehnatga layoqatli aholining **8 ming 929 nafari** (10,7 %) ishsizdir.

Tumanda ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi yo'nalishida yangi loyihalarni aniqlash, yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanilmagan.

Natijada **9 ming 782 nafar** fuqarolar uzoq muddatga chet mamlakatlarga chiqib ketgan.

Xorijdan qaytgan fuqarolarning bandligini ta'minlash masalasida bir qator kamchiliklarga yo'l qo'yilgan.

30 yoshgacha bo'lgan fuqarolar soni **6 325 nafarni** tashkil etib, shundan ish bilan ta'minlanmagan uyushmagan yoshlar soni **1 063 nafarni** tashkil etadi.

Chetdan qaytgan **137 nafar** yoshlardan **27 tasi** ish bilan ta'minlangan. O'rganish davomida ishga joylashtirish bo'yicha kelib tushgan murojaatlar bo'yicha **15 nafari** ishga joylashtirildi, shulardan **12 nafari** haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilindi.

#### **Bandlik bosh boshqarmasi tomonidan amalga oshirilgan ishlar natijasida:**

Ishga joylashish uchun yo'llanma berilib, ishga joylashganlar soni **759 ta**;

Jamoat ishiga yuborilganlar soni **609 ta**;

Kasbga qayta tayyorlash uchun ro'yxatga olinganlar soni **33 ta**;

Ustoz-SHogird asosida o'qitishga talab bo'yicha ro'yxatga olinib, birlashtirilgan yoshlar soni **385 ta**;

Jami **5091 ta** fuqaroning bandligi ta'minlangan.

Shu bilan birga, ishsiz fuqarolar bandligini ta'minlash maqsadida joriy yilning **22-25 sentyabr** kunlari "Bo'sh ish o'rinlari Mehnat yarmarkasi" tashkil etildi.

Yarmarkaga jami **2725 nafar** ish izlovchi fuqarolar qatnashib shundan, **1038 nafari** ish bilan ta'minlandi, jumladan:

**150 nafar** fuqarolarga iqtisodiyotning turli yo'nalishlari bo'yicha yo'llanma berilib ishga joylashishga ko'maklashildi;

**888 nafar** fuqarolarga jamoat ishlariga jalb qilinishi bo'yicha yo'llanmalar berildi.

#### **11. Aholining ehtiyojmand qatlamlarini moddiy qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha:**

Tumanda o'rganish davomida aholining kam ta'minlangan, ehtiyojmand qatlamlarini moddiy qo'llab-quvvatlash masalalarida kelib tushgan muammolarni bartaraf etish maqsadida **150 ta** oilalarga **17 mln. so'mlik** bir martalik moddiy yordam tarqatildi.

Tumanda o'rganish davomida aholining kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy nafaqa masalalarida jami **44 ta** muammolar kelib tushgan bo'lib, ushbu muammolarni to'liq bartaraf etish jarayonida me'zon asosida tayinlangan **20 nafar** fuqarolarga jami **67,1 mln.so'mlik** ijtimoiy nafaqalar tayinlandi.

#### **12. Tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari va bank krediti ajratilishi bo'yicha 244 ta masala**

---

ko'tarilgan bo'lib **224 tasi** (91,8 %) hal etildi.

Shuningdek, xonadonlarda uyma-uy o'rganishlar davomida tadbirkorlikni yo'lga qo'yish istagida "**Har bir oila-tadbirkor**" Dasturi davomida **82 nafar** fuqarolarga **1 914,8 mln. so'm** miqdorida imtiyozli kredit mablag'lari ajratildi.

Jumladan:

- **23 ta** fuqarolarga **200,3 mln. so'm** issiqxona tashkil etish maqsadida;
- **3 ta** fuqarolarga **75,0 mln. so'm** parrandachilikni rivojlantirish maqsadida;
- **1 ta** uy-joy mulkdorlar shirkatiga **100,0 mln. so'm** ko'p qavatli uylarni ta'mirlash maqsadida;
- **41 ta** fuqarolarga **761,6 mln. so'm** tikuvchilikni rivojlantirish maqsadida;
- **16 ta** tadbirkorlik sub'ektiga **778,4 mln. so'm** ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadida kredit mablag'lari ajratildi.

**PF-5466 "Yoshlar kelajagimiz"** dasturi bo'yicha **7 ta** yosh tadbirkorga **335,0 mln. so'm** miqdorida kredit mablag'lari ajratildi.

Shu bilan birgalikda **151 nafar** fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlariga **2 366,2 mln. so'm** imtiyozli kreditlar ajratilishi bo'yicha hujjatlar tayyorlandi.

Jumladan:

- **25 ta** fuqaroga **270,0 mln. so'm** qo'y sotib olish maqsadida;
- **43 ta** fuqaroga **477,2 mln. so'm** issiqxona tashkil etish maqsadida;
- **62 ta** fuqaroga **730,0 mln. so'm** tikuvchilikni rivojlantirish maqsadida;
- **18 ta** fuqaroga **814,0 mln. so'm** milliy pishiriqlar ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadida;
- **3 ta** fuqaroga **75,0 mln. so'm** avtomobillarga texnik xizmat xizmat ko'rsatish maqsadida.

### **13. Ko'p qavatli uylarda amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha:**

Olib borilgan ishlar natijasida ko'p qavatli uylar oldiga qurilgan **63 ta** noqonuniy qurilmalar bartaraf etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 apreldagi "2017-2021 yillarda ko'p xonadonli uy-joy fondini saqlash va undan foydalanish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2922-sonli hamda 2017 yil 8 avgustdagi "Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3182-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida tumanda joylashgan ko'p qavatli uy-joylar va ularning hududlari xatlovdan o'tkazildi.

Xatlovdan o'tkazish natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida:

"Do'stlik" MFY "Do'stlik", "X.Ermatov" va "T.Dadajonov" ko'chalaridagi ko'p qavatli uylarning tom qismlarini **5 tasini** shifer bilan joriy va **4 tasini** yumshoq (polizol) qoplamasi bilan mukammal ta'mirlash, **26 ta** uylarning fasad qismlari, kirish yo'laklarini ta'mirlash va **28 ta** temir eshik hamda ta'mirlash;

"Shodlik" MFY "A.Navoiy" ko'chasidagi **2 ta** uyning tom qismini shifer qoplamasi bilan joriy ta'mirlash, **4 ta** uylarning fasad qismlari va kirish yo'laklarini ta'mirlash;

"Furqat" MFY "Toshloq" ko'chasidagi **1 ta** ko'p qavatli uyning tom qismlarini shifer bilan joriy va **1 ta** yumshoq qoplamasi bilan yopib mukammal ta'mirlash, **3 ta** uylarning fasad qismlari va kirish yo'laklarini ta'mirlash;

shuningdek, tumandagi ko'p qavatli uylar hududiga **5 ta** bolalar maydonchasi, **15 ta** tandir-o'choq, **3** tatashqi xojatxona va oqava suv uchun **25m<sup>3</sup>** sig'imli chuqur (*выгрыбная яма*) qurilishi rejalashtirilib,

---

loyiha-smeta xujjatlari tayyorlanmoqda.

Taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra, ushbu ishlar uchun **1,12 mlrd.so'm** miqdorida mablag' sarflanishi rejalashtirildi.

Bugungi kunda Viloyat xokimligi tomonidan Toshloq tumanida joylashgan ko'p qavatli uy-joylarni ta'mirlash xamda xududlarini obodonlashtirish uchun **400 mln. so'm** mablag' ajratilib, tumandagi **3 ta** ko'p qavatli uylarni fasad qismi va **5 ta** ko'p qavatli uylarni tom qismi mukammal hamda joriy ta'mirlanmoqda.

Toshloq tumanida joylashgan ko'p qavatli uy-joylardagi mukammal, joriy ta'mirlash ishlari hamda hududlarni obodonlashtirish ishlarini **2018 yil 10-oktyabr kuniga qadar** to'liq yakunlab, foydalanishga topshirish rejalashtirildi.

Shu bilan birga, ko'p qavatli uylar hududlarini obodonlashtirish bo'yicha tuman tuman "Suvoqava" DUK, "Toza hudud" DUK va Obodonlashtirish boshqarmasiga qarashli **2 dona** yuklagich traktori, **3 dona** yuk tashish, **1 dona** maxsus chiqindi tashish va **1 dona** maxsus suyuq chiqindi tashish avtotransport vositalari hamda **70 nafar** ishchi xodimlar jalb qilinib, obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda.

Buning natijasida ko'p qavatli uylarda yashovchi **3 ming** nafardan ortiq fuqarolarning yashash sharoitlari yaxshilanadi.

Qolgan **598 ta** masalalar tegishli viloyat boshqarma va tuman tashkilotlariga o'rnatilgan tartibda hal qilish uchun etkazilib, Respublika ishchi guruhi tomonidan Toshloq tumanidagi mahallalar va oilalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitni o'rganish hamda aniqlangan muammolarni bartaraf etishga ko'maklashish ishlari davom etadi.

2018-09-29 13:13:45